

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA YANGI TILLARNI O'RGANISHNING SAMARALI USULLARI

Shavkatov Elbek Samariddin o'g'li
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro huquq fakulteti 1-bosqich talabasi



Annotatsiya

Bu globallashtirish davrida raqamli texnologiyalar kundan – kunga rivojlanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar ya'ni sun'iy intellekt, blokcheyn tizimlari, interaktiv onlayn platformalar o'z navbatida ko'p sohalarga ta'sir o'tkazmoqda shuningdek insonlarning samarali va tez til o'rganish qobiliyatiga ham. Ushbu maqola raqamli texnologiyalarning ta'limdagi o'rni va odamlarning yangi tillarni o'rganishga bo'lgan samaradorligini tahlil qiladi. Hozirgi kunda zamon talablaridan biri bu til o'rganish va ko'pchilik maktab, kollej va universitet talabalari til o'rganishni an'anaviy usulda ya'ni har xil kurslarda o'qish orqali o'rganishadi. Ammo ko'pchilik o'quvchi va talabalar bu usul ancha eskirganini va bu zamonaviy raqamli texnologiyalar davri uchun ancha zerikarli ekanligini takidlashadi. Hayotimizni turli sohalarda osonlashtirib kelayotgan sun'iy intellekt kabi texnologiyalar bilan bu muammoga ancha oldin yechim topilgan. Raqamli texnologiyalar bizga masofaviy ta'lim imkoniyatidan tashqari, bizga qiziqarli va tushunarli o'yinlar, videolar hamda topshiriqlar orqali yangi tillarni o'rganish imkoniyatini beradi. Bu o'yinlar orqali o'quvchi chuqur bilimga ega bo'ladi hamda qiziqarli bo'lganligi uchun yanada eslab qolish oson bo'ladi. Bugungi kunda bu zamonaviy raqamli tizimlar bilan turli tajribalar o'tqazilib ko'plab davlatlar o'qitishni va o'rganishni aynan shu usulda olib bormoqda va bu an'anaviy o'qitish tizimiga qaraganda ancha samarali ekanligini tasdiqlashmoqda.

Kirish so'zlar: Raqamli davr, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt (AI), blokchain, multimedia.

Kirish

Yangi xorijiy tilni o'zlashtirish jarayoni 21 – asrda ulkan o'zgarishlarga duch keldi. Buning asosiy sabablaridan biri bu raqamli texnologiyalardir. Raqamli texnologiyalar sababli yangi tillarni o'rganish osonlashdi va an'anaviy tizimni o'zgarishiga ta'sir o'tkazdi. An'anaviy ravishda til o'rganish asosan jismoniy darsliklar va sinfga asoslangan ta'limga tayanar edi. Biroq raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va internetning barcha hududlarda keng tarqalishi ta'lim metodologiyasini keskin o'zgartirib yubordi. Hozirgi zamonda kundan – kunga rivojlanayotgan raqamli

muhit o'rganuvchilar uchun yangi o'rganilayotgan til bilan moslashuvchan va yuqori darajada interaktiv tarzda shug'ullanish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Masalan sun'iy intellekt faqatgina tarjimon vazifasini emas balki, talaffuz va gramatikaga oid tezkor va ishonchli fikr – mulohazalarni taqdim etmoqda. Bundan tashqari bugungi kunda ommalashgan va turli tillarda so'zlashish uchun moslashtirilgan qurilma yoki ilovalar raqamli texnologiyalarning bir qismi. Shuningdek, youtube kabi global platformalar tuli til o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan maruzalar va video darslarni istalgan joyda tinglash imkonini beradi. Bu vositalar nafaqat organuvchilarning motivatsiyasini va qiziqishini oshiradi balki, ularga oson usullarda o'rganish imkoniyatini ham yaratib beradi. Shuning uchun, til o'rganuvchilar o'z muvaffaqiyatlari uchun bugungi raqamli texnologiyalardan qanday foydalanish kerakligini tushunishlari muhim.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – hozirgi raqamli davrda talabalarning til o'rganish jarayonini optimallashtirish uchun ushbu raqamli resurslardan foydalanishning eng samarali usullarini o'rganishni va ularni tahlil qilishni maqsad qilgan.

Vazifalar

Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqot quyidagi aniq vazifalarni belgilaydi:

1. Til o'rganishning turi jihatlarini masalan: tinglash, gapirish, o'qish, yozishni o'rganishda asosiy raqamli texnologiyalarning jumladan AI asosidagi ilovalar hamda multimedia rolini va ta'sirini aniqlash.
2. Til o'rganish jarayonida online darslarni va sinfga asoslangan ta'limni yaxshi va yomon tomonlarini tahlil qilish.
3. Til o'rganish ananaviy darsliklardan raqamli kontentgacha qanday kengayganini aniqlash.

Adabiyotlar tahlili

Raqamli davrda til o'rganishning zamonga monand o'zgarishi:

Istalgan sohani o'rganishda zamonaviy raqamli davrga moslashish zarur, shuningdek til o'rganishda ham. Tadqiqotchilarning fikricha, raqamli davr yangi horijiy tillarni o'rganuvchilarning o'rganish usullarni, tushunish salohiyatini hamda o'rganish uchun sarf qiladigan vaqt hajmini sezilarli darajada o'zgartirib yuboradi. Raqamli til o'rganishning asosiy afzalligi – geografik va logistik to'siqlarni bartaraf etishidadir. Bu esa organuvchilarga istalgan vaqtda va istalgan joyda o'quv resurslari yoki manbalaridan foydalanish imkonini beradi. Ko'plab tadqiqotchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'quv dasturi uchun qo'llanilayotgan texnologiyalar ma'lumotlar sifatini yaxshilaydi, muloqotni yanada haqiqiy qiladi hamda talaffuz bilan bog'liq muammolarga e'tibor qaratadi. Shuningdek, barcha muhim til ko'nikmalarini ya'ni tinglash, yozish, o'qish, gapirish,

grammatika va lug'atlarni rivojlantirishga katta imkoniyat yaratadi. O'z navbatida o'rganuvchiga murakkab jummalarni tushunishga yoki tuzishga yordam beradi hamda ularni oson yo'llar bilan tahlil qilish usullarini taqdim etadi.

Sun'iy intellekt (AI) va tillarni o'rganishda uning ro'li:

Sun'iy intellekt bu raqamli davrda zamonaviy texnologiyaning eng katta yutug'i hisoblanib, bugungi hayotimizning deyarli barcha sohalarida qo'llanilmoqda. Bugungi kundagi maqola va adabiyotlarning asosiy mavzularidan biri – ikkinchi tilni o'rganishda sun'iy intellektni qo'llash yoki AI ning ta'limdagi ro'li haqida. AI hozirgi zamon talablariga mos bo'lgan til o'rganish strategiyalarini ishlab chiqa oladigan darajaga yetdi va o'rganuvchilar uchun qulay o'rganish dasturlarini taklif qilmoqda. Intelektual Repetitor Tizimlari (IRT) va AI ga asoslangan platformalar o'rganuvchining ayni vaqtdagi darajasiga va tushunish salohiyatiga asoslanib kontentni va ma'lumotni o'rganuvchiga moslashtiradi. Bu esa o'rganuvchilar uchun qulayliklar beradi hamda o'rganish sifati va darajasini keskin oshiradi. Shuningdek, ushbu moslashuvchan yondashuv o'rganuvchiga zaif tomonlarini aniqlab beradi va bu kamchiliklarni to'g'irlashi uchun un to'g'ri mashqlarga yo'naltiradi. Bu esa o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Raqamli davrda raqamli medianing o'rni va uning oqibatidagi muammolar:

Raqamli media bu internet va elektron qurilmalar orqali is'temol qilinadigan raqamli axborot. Raqamli medianing ta'siri rasmiy o'quv ilovalaridan tashqariga chiqadi. Ijtimoiy media platformalari ya'ni onlayn forumlar, youtube kabi video oqim saytlari endilikda kuchli ilmiy kontentga ega vositalar sifatida tan olinmoqda. Bu platformalar turli xil darsliklarni tomosha qilish hamda ulardan istalgan joyda foydalanish imkoni beradi hamda o'rganuvchilarning lug'at boyliklarini kengaytirishga va tushunish qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi. Bunday usullar orqali til o'rganish o'rganuvchining ishtiyoqini va faolligini oshiradi. Bundan tashqari, **Geymifikatsiya** (o'quv ilovalarida mukofotlar va raqobat elementlarini shakllantirish) til o'rganish darajasini yaxshilashda samarali ekanligi isbotlangan. Ushbu afzalliklarga qaramay tadqiqotchilar muammolarni ham ta'kidlaydilar. Xavotirlar orasida o'quvchilarning vositalarga haddan tashqari o'rganib qolishlari asosiysidir. Bundan tashqari, ba'zi platformalar orqali o'rganuvchining e'tiborini o'qishdan tashqari bo'lgan kontentlarga qaratish xavfi ham mavjudligi ta'kidlanadi. Shuning uchun, o'quv saytlarini tanlashda ongli yondashish zarur.

Asosiy qism (Metodologiya)

Ushbu tadqiqot raqamli davrda til o'rganishning eng samarali usullarini aniqlashga qaratilgan sifatli va tavsifiy yondashuvga asoslanadi. Maqolaning asosiy maqsadi hozirgi raqamli davrda talabalarning til o'rganish jarayonini optimallashtirish

uchun ushbu raqamli resurslardan foydalanishning eng samarali usullarini o'rganish va tahlil qilish bo'lganligi uchun quyidagi usullardan foydalanildi:

1. Tizimli adabiyotlar tahlili: Bu usul oldingi ishlarda aniqlangan asosiy tendensiyalar, samarali amaliyotlar va bahsli masalalarni tanlab, to'plash, baholash va sintez qilish uchun ishlatilgan. Bu yondashuv maqolaning obyektiv va manbalarga asoslangan bo'lishini ta'minlaydi.

2. Ma'lumot yig'ish: Tadqiqot uchun materiallar asosan 2020-yildan keyin nashr etilgan ilmiy jurnal maqolalari, konferensiya materiallari va tadqiqot hisobotlaridan yig'ildi. Asosiy ma'lumotlar bazalari orasida Google Scholar va ilmiy nashriyot platformalari mavjud.

3. Ma'lumotlarni tahlil qilish: Yig'ilgan adabiyotlarni tahlil qilish uchun Tematik Tahlil usuli qo'llanildi. Bu usul turli manbalardan olingan ma'lumotlarni o'rganish va ularni umumiy mavzular bo'yicha guruhlash imkonini beradi.

Xulosa

Raqamli texnologiyalar davrida yangi tilni o'rganish qulayroq va samaraliroq bo'lmoqda. Zamonaviy raqamli vositalar - video darslar, onlayn platformalar, mobil ilovalar, sun'iy intellektga asoslangan dasturlar va hatto o'yinlar til o'rganish jarayonini osonlashtiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday texnologiyalar nafaqat so'z boyligini oshiradi, balki og'zaki nutqni, tinglab tushunish va yozish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Bundan tashqari, raqamli muhit o'quvchilarga o'zlari uchun qulay vaqtda, xohlagan joyda mustaqil o'rganish imkonini beradi. Yana bir muhim jihat - SI (sun'iy intellekt) texnologiyalari. Ular o'quvchilarning xatolarini tezda aniqlay oladilar va shaxsiy tavsiyalar bera oladilar. Bu o'quv jarayonini yanada individuallashtiradi va samarali qiladi. Onlayn ta'lim tajribalari shuni ko'rsatadiki, to'g'ri tanlangan raqamli usullar an'anaviy darslarni to'ldiradi va tilni hayotiy misollar orqali o'rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

MyBib Contributors (2019). Harvard Referencing Generator – FREE – (updated for 2019). [online] MyBib. Available at: <https://www.mybib.com/tools/harvard-referencing-generator>

Seely Brown, J. (n.d.). Learning in the Digital Age. [online] Available at: https://johnseelybrown.com/learning_in_digital_age-aspen.pdf

Starkey, L. (2012). Teaching and Learning in the Digital Age. [online] Routledge. doi: <https://doi.org/10.4324/9780203117422>

Zeng, S. (2018). English Learning in the Digital Age. Springer eBooks. Springer Nature. doi: <https://doi.org/10.1007/978-981-13-2499-4>

Anyushenkova, O., Olesya Digtyar, Zakirova, E., Nadezhda Fomina and Lyudmila Esina (2019). MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO STUDENTS OF THE DIGITAL GENERATION. EDULEARN proceedings. Doi <https://doi.org/10.21125/edulearn.2019.0914>

ieeexplore.ieee.org. (n.d.). The AI Digital Revolution in Innovation: A Conceptual Framework of Artificial Intelligence Technologies for the Management of Innovation | IEEE Journals & Magazine | IEEE Xplore. [online] Available at: <https://ieeexplore.ieee.org/abstract/document/9590499/>

Kuddus, K. (2022). Artificial Intelligence in Language Learning: Practices and Prospects. Advanced Analytics and Deep Learning Models, pp.1–17. doi: <https://doi.org/10.1002/9781119792437.ch1>

V, K.L., O, V.A., O, K.I. and O, K.N. (2022). Artificial Intelligence in Language Learning: what are we afraid of. [online] Uni-sport.edu.ua. Available at: <https://reposit.uni-sport.edu.ua/items/74b24a77-7b31-4c94-a6c8-690bfb0a9531>

Kannan, J. and Munday, P. (2018). New Trends in Second Language Learning and Teaching through the lens of ICT, Networked Learning, and Artificial Intelligence. *Círculo de Lingüística Aplicada a la Comunicación*, 76(0). doi: <https://doi.org/10.5209/clac.62495>